



MAVZU:DAVLAT-SIYOSIY TIZIM SUBYEKTI SIFATIDA SIYOSIY REJIMLARNING QIYOSIY TAHLILI

*O'zbekiston Milliy universiteti Siyosatshunoslik yo'naliishi 4-kurs
talabasi:*

Ma'rufov Adhambek

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat siyosiy tizimining sub'ekti sifatida siyosiy rejimlar tushunchasi, ularning tasnifi va o'zaro farqlari tahlil qilinadi. Demokratik, avtoritar, totalitar va gibrildi rejimlarning hokimiyyat manbalari, fuqarolik huquqlari, axborot erkinligi va institutsional mustahkamligi jihatidan qiyosiy taqqoslanadi. Maqola natijalariga ko'ra, har bir rejim turi davlat siyosiy tizimida o'ziga xos rol o'ynaydi va mamlakat siyosiy barqarorligi hamda fuqarolarning siyosiy ishtiroki darajasini belgilaydi.

Davlat siyosiy tizimi – bu hukumat organlari, qonunchilik va sud tizimi, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa sub'ektlar majmuasidir. Ularning o'zaro munosabatlari siyosiy rejim orqali tartibga solinadi^[1]. Siyosiy rejim – hokimiyyat manbalari, ularning qo'llanish usullari va institutsional mexanizmlar to'plami sifatida aniqlanadi. Rejim tahlili nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim: u orqali davlat boshqaruvi samaradorligi, fuqarolarning siyosiy huquqlari va barqarorlik darajasi baholanadi.

XX asrning 20-yillarda bu soha rivojlanishiga turtki bo'ladigan hodisa yuz berdi: biologiya fani sohasida tizimlar nazariyasi yaratildi. "Tizim" tushunchasini ilmiy muomalaga birinchi bo'lib, nemis biolog olimi L.Fon Bertalanfi (1901-1972yy.) tomonidan kiritilgan. Siyosatshunoslik sohasida esa, bu "siyosiy tizim" tushunchasiga ilk bor o'z e'tiborini qaratgan olimlardan biri bu – fransuz olimi Etann Bonno de Kondilyakdir. U 1749-yilda "Tizimlar haqida traktat" asarini yozadi. Unda Kondilyak "tizim" tushunchasiga quyidagi ta"rifni beradi: "Har qanday tizim qandaydir amaliy faoliyat yoki fanning barchasi bir-birlarini o'zaro qo'llab-quvvatlaydigan, oxirgisi birinchisini dalillaydigan turli qismlarning

ma'lum bir tartibda jaylashuvidan boshqa narsa emas. Uning boshqa qismlarini dalillaydigan qismlari esa prinsiplar deb ataladi.” Bu olim nazariyasida “Undagi unsurlar bir-birlari bilan shunday bog’langanki, bir unsurning o’zgarishi natijasida butun unsurlar o’zgarib ketadi degan jumlalar ham mavjud.L.Fon Bertalanfi ishlab chiqqan tizimlarning umumiy nazariyasiga tayangan holda AQSH olimi T.Parsons jamiyatda murakkab boshqaruvdan iborat nisbatan avtanom tizimlar mavjud ekanligiga e’tibor qaratdi. Uningcha, siyosiy tizim – umumiy maqsadlarni ishlab chiqish, integratsiyalash va amalga oshirishni ta“minlab beradi. U tizimni 4 guruhga: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy tizimlarga ajratadi. Siyosiy tizim nazariyasini AQSH siyosatshunos olimi D.Iston har tomonlama keng rivojlantirib, siyosiy tizim asoschisi sifatida ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan. D.Iston “Siyosiy tizim” (“The Political System”, 1953y.), “Siyosiy tahlil me'yori” (1965), “Siyosiy tahlil uchun konseptual struktura” (“A Framework for Political Analysis”, 1965 y.) “Siyosiy hayotning tizimli tahlili” (“A Systems Analysis of Political Life”, 1965 y.) asarlarida siyosiy tizimni “tashqaridan keladigan impulslarga – buyruqlarga faol aks-sado beradigan, rivojlanuvchan va o’zini-o’zi muvofiqlashtiruvchi organizm” sifatida ta“rifladi. Shuningdek, olim o’zining “Iston siyosiy tizim modeli” ni yaratadi[2]

Davlat siyosiy tizimi sub’ekti sifatida siyosiy rejimlar turlicha xususiyatlarga ega. Demokratik rejim fuqarolarni ishtirokga jalb etib, shaffof boshqaruvni ta’milasa, avtoritar va totalitar rejimlar barqarorlik va tezkor qaror qabul qilishga e’tibor qaratadi. Gibrid rejimlar esa ikki ekstremal modelni uyg‘unlashtirib, murakkab siyosiy maydon yaratadi. Mamlakat siyosiy tizimini takomillashtirish uchun rejim turining ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstga mos ravishda tanlanishi va demokratik institutlarni mustahkamlash zarur. Yuqoridaqilmiy tadqiqotlar va ularning asoschilarining yondashuvlari ikki fenomenda farqlar yaqqol ko’rinmoqda. Bu davlat va jamiyat fenomenlaridir. Ya’ni, davlatning roli yuqori pozitsiyada bo’lsa, siyosiy jarayonlardagi ta’siri baland bo’ladi. Bu holat davlatning siyosiy tizimni kuchaytirishga, uni kristall holatini mustahkamlashga



to'g'ri keladi. Bu esa siyosiy tizimning siyosiy rejim holatidan kelib chiqishiga hamda bu siyosiy tizim va siyosiy rejim tushunchalarining bir xil ma'no ifodalashiga olib keladi. Siyosiy rejimning ham ta'siri deyarli siyosiy tizimga qarailadi va katta ahamiyat darajasida ifodalanadi. Biroq davlat emas, jamiyatning davlatga ta'sir ko'lami yuqori bo'lsa unda siyosiy tizim siyosiy rejimga ta'sir ko'rsatadi jumladan bunday holatda Iston, Doych, Almond ta'kidlaganidek, me'yorlar, munosabatlar, axborotlar aylanishi va harakati kuzatiladi. Oqibatda esa siyosiy tizim va siyosiy rejim jamiyat va davlat o'rtaida adaptatsion jarayonni hosil qilishini ko'rsatadi. Xilma-xil yondashuvlar va qarashlarning umumiyligi nuqtasi davlat boshqaruvida kesishadi va bu orqali siyosiy hokimiyat va davlat boshqaruvi munosabatlari tizimi yaxlit aloqa mexanizmlarining o'simlik hujayralari singari bir-biriga tashuvchi harakatlar sintezi nuqtalarini ham ko'rsatadi. Lekin, bu bilan siyosiy rejim va siyosiy tizim farqini, umumiyligini va boshqa tomonlarini ko'rsatib bo'lmaydi. Sababi bu definitsiyalar tabiatiga ko'ra, dinamik progressiyaga ega hisoblanadi. Bu rivojlanish esa, ularning xususiyatlari va alohida jihatlarini rivojlanib borishi uchun xizmat qiladi. Ilmiy nazariyalardagi o'zaro bahs va muhokamalar ham aynan mana shu o'suvchanlik va o'zgaruvchanlik nisbatlari sababli ilmiy muhokamalar doirasi kengaymoqdalar. Siyosiy tizim va siyosiy rejim siyosatshunoslik sohasidagi muhokamalarda biror siyosiy fenomen bilan ya'ni davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat, siyosiy menejment, siyosiy tahlil va siyosat metodologiyasi nuqtai nazaridan bog'lab ilmiy asoslantirilsa, undagi konsentrik doira hajmining kichik diapazonda olib borlishiga imkoniyat yaratadi. Demak, siyosiy tizim va siyosiy rejim tushunchalari kvalifikatsiyasi o'zaro birbiri bilan aloqaga kirishi orqali aniqlandi. Bu definitsiyalarning alohida xususiyatlari va mazmun-mohiyati davomida davlat va jamiyat fenomenlaridagi pozitsiyasi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, bu tushunchalar siyosatshunoslik sohasidagi eng muhim ilmiy tadqiqot mavzusi hisoblanishi ilmiy asoslarga ko'ra isbotini topdi. Siyosiy tizim va siyosiy rejim davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyat tizimida yaxlit markaziy tayanch nuqta hisoblanishi va buning butun tuzilmalar faoliyatiga kuchli ta'sir aloqlariga ega



ekanligi ma'lum bo'ldi. Siyosiy tizim va siyosiy rejim qancha mukammal va xatolari kam bo'lsa, ularning samaradorlik va natijadorlik qobiliyatlarini ishlashi shunchalik yuqori bo'ladi. Siyosiy tizim va siyosiy rejim siyosiy kategoriylar tizimidagi bir qator siyosiy tadqiqotlar bazasida asosiy vositalar ko'lami uchun siyosiy maydonni, siyosiy makonni yoki siyosiy konsentrik doirani belgilab beradigan omillardir. Siyosiy tizim va siyosiy rejim kvalifikatsiyasi shuni ko'rsatdiki, ilmiy tadqiqotlar va konsepsiylar umumiyligi nuqtasi jihatiga ko'ra mazkur tushunchalar davlat va jamiyat siyosiy hayotida zanjirlar va halqalar ko'rinishida turli siyosiy qaror qabul qilish jarayonida, siyosiy me'yor, siyosiy qadriyatlar, siyosiy munosabatlardan ko'rinishida siyosat subyektlarining xattiharakatlari pog'onalarida ko'rindi va siyosat obyektiga ta'sir etuvchi asosiy darajalarda ifodalanadigan xususiyatlardan majmuasidan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sartori, G. (1994). Comparative Constitutional Engineering. London: Macmillan.
- 2.Easton D. The Analysis of Political Structure. – New York. – London, 1990. – 336 p..
- 3.Dahl, R. A. (1971). Polyarchy: Participation and Opposition. New Haven: Yale University Press.
- Levitsky, S., & Way, L. (2010). Competitive Authoritarianism: Hybrid Regimes after the Cold War. Cambridge: Cambridge University Press.